

XANTHIUM ORIENTALE L. O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

XANTHIUM ORIENTALE L. ОСОБЕННЫЕ СВОЙСТВА

XANTHIUM ORIENTALE L. SPECIFIC CHARACTERISTICS

Yursunova O'g'iloy Mamitali qizi

Farg'ona Davlat Universiteti Biologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Bu maqola Xanthium orientale L. turining biologik xususiyatlariga bag'ishlangan. Maqolada ushbu o'simlikning urug'larining germinatsiya xususiyatlari, optimal germinatsiya harorati (30-35°C), turining invazivligi va ekologik moslashuvchanligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, Xanthium orientale ning tarqalishi va madaniy ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *urug', optimal harorat, invaziv, neofit, poya, barg, tuklar, ikki uyli, shoxlanish, changchili, urug'chili, qoramtir, tikon, tuxumsimon.*

Аннотация: *Данная статья посвящена биологическим особенностям вида Xanthium orientale L. В статье представлены данные о прорастании семян данного растения, оптимальной температуре прорастания (30–35°C), инвазивности вида и его экологической адаптивности. Также приведена информация о распространении Xanthium orientale и его культурном значении.*

Ключевые слова: *семя, оптимальная температура, инвазивный, неофит, стебель, лист, волоски, двудомный, ветвление, опыление, тычинка, , колючий, яйцевидный.*

Annotation: *This article is devoted to the biological characteristics of the species Xanthium orientale L. The article provides information on the germination properties of the seeds of this plant, the optimal germination temperature (30-35°C), the invasiveness of the species and its ecological adaptation. It also provides information on the distribution and cultural importance of Xanthium orientale.*

Keywords: *seed, optimal temperature, invasive, neophyte, stem, leaf, hairs, dioecious, branching, pollinating, seed-bearing, dark, thorny, ovoid*

KIRISH

Xanthium orientale L. - Bir yillik, bo'yi 50-100 sm, poyasi to'g'ri, odatda shoxlangan, yumaloq bo'lib, qattiq tuklar bilan qoplangan. Bargi uchburchak shaklida, uzunligi esa 5-12 sm, eni 6-11 sm, 3-5 bo'lakli, yuraksimon, uchki qismi kalta o'tkirlashgan bo'ladi. Chetlari ikki karra tishsimon yoki noto'g'ri arrasimon-tishsimon qirqilgan, dag'al tukli, bandli. Savatchasi gomogam, ammo ikki uyli.

Changchili gullari umumiy to'pgulning yuqori qismida, urug'chilisi pastki qismida joylashgan. Urug'dan tashkil topgan brakteya tengsiz tomonli, cho'zilgan tuxumsimon, qoramtir, uzunligi 15-30 mm va eni 7-10 mm, tekis qalinlikdagi uzunligi 3-5 mm

tikonlar bilan qoplangan, tikonlarining uchki qismi ilmoqsimon. Uchki qismi uzunligi 4-8 mm, yo'g'on konussimon, to'g'ri burchak ostida ayrilgan, uchki qismi biroz ilgaksimon, mustaxkam 2 ta shoxi bo'ladi. (1- rasm)

EKOLOGIK VA MUHITGA MOSLASHUV XUSUSIYATI

Xanthium orientale L. ho'l va ozuqaga boy, ishqoriy reaksiya ko'rsatadigan tuproqlarda o'sishga moslashgan. U odatda dehqonchilik yerlari, yo'l yoqalari va daryo bo'ylaridagi buzilgan ekotizimlarda o'sadi. Tuzsiz ho'l hududlar, masalan, vaqtinchalik suv oqimlari va ariq bo'ylarini egallaydi. Yorug'lik uchun indikativ ko'rsatkichi — 7,9; namlik — 6,9; tuproq reaksiyasi — 6,8; ozuqa miqdori — 7. Bu esa uning quyoshli, nam va ozuqaga boy joylarda yaxshi o'sishini anglatadi.



1- rasm - *Xanthium orientale* L. o'simlikning umumiy ko'rinishi

TARQALISHI

O'rta va Sharqiy Yevropa, Kavkaz, O'rtaerdengiz, Uzoq Sharq, Kichik Osiyo. *Xanthium orientale* L. har xil harorat sharoitida yuqori unib chiqish ko'rsatkichiga ega. Tadqiqotlarda, urug'larning unib chiqishi 15 °C da 15% bo'lsa, optimal haroratda bu ko'rsatkich 90% gacha yetgan. Eng qulay unib chiqish harorati 30–35 °C oralig'ida bo'lib, harorat oshgani sari unib chiqish darajasi ham oshib boradi. Bu moslashuvchanlik uning invaziv (yot) o'simlik sifatida tez tarqalishiga sabab bo'ladi. U dastlab Shimoliy va Janubiy Amerikaga xos bo'lsa-da, hozirda u Yevropa, Osiyo va Afrika hududlariga keng tarqalgan. Yevropada u neofit sifatida baholanadi va qirg'oq zonalari, qumli sohillar, ho'l hududlar hamda buzilgan tabiiy muhitlarda keng o'smoqda.

O'zidan changlanuvchi o'simlik. Shunday bo'lsada, yuqori ichki populyatsion o'zgaruvchanlikga ega bo'lib, turning ekologik plastikligini ta'minlaydi. Iyul-avgust oylarida gullaydi. To'pmevasi yozning oxiri va kuzning boshlarida pishib yetiladi. To'pmevalari poyada keyingi vegetatsiya davri boshlanguncha qisman saqlanib qoladi.

Bu esa o'simlikni ilmoqli urug'lari orqali tezroq tarqalishiga imkon beradi. *Xanthium orientale* L. ning invazivlik maqomini aniqlash turning uchrash holati, barqarorlik darajasi va ekologik-fitotsenotik xususiyatlari bo'yicha baxolandi. Unga ko'ra o'simlikning invazivlik maqomi yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, 12 ballni tashkil etdi va tabiiy floraga bostirib kirish darajasi yuqoriligini ko'rsatdi: barqarorlik darajasiga ko'ra 4 ball (tur juda barqaror va u faol tarqaladi, yuqori samarali generativ ko'payish xususiyatiga ega); uchrash holatiga ko'ra 6 ball (keng ekologik amplitudaga ega bo'lgan, bir formatsiyaning ko'pchilik o'simliklar guruhida mavjud bo'lgan, ko'pincha dominant/subdominant sifatida jamoani boshqarayotgan va deyarli hamma joyda keng tarqalgan, ko'p sonli populyatsiyaga ega tur); ekologik-fitotsenotik xususiyatiga ko'ra 2 ball (tabiiy biotoplarga qaraganda urbanizatsiyalangan biotoplarda kengroq tarqalgan).

Xulosa *Xanthium orientale* L. turining biologik va ekologik xususiyatlarini o'rganish uning invazivligi va muhitga moslashuvchanligini chuqur anglash imkonini beradi. . O'simlikning ekologik moslashuvchanligi, ayniqsa, ho'l, ozuqaga boy va ishqoriy tuproqlarda samarali o'sishi, uni turli ekotizimlarda tez tarqalishga imkon yaratadi. Shu boisdan, ushbu turga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish va uning ekologik ta'sirini baholash kelajakdagi tadqiqotlar uchun muhim yo'nalish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kastetter, E. F. (1935). Amerika janubi-g'arbiy qismida etnobiologik tadqiqotlar Oziq-ovqat manbalari sifatida foydalaniladigan ekilmagan mahalliy o'simliklar. Nyu-Meksiko universiteti byulleteni.
2. Richardson, D. M. (2010). Invaziv turlar, atrof-muhitni o'zgartirish va boshqarish va salomatlik. Atrof-muhit va resurslarning yillik sharhi, 35, 25–55.
3. Yem-xashak yetishtirish fanidan amaliy mashg'ulotlar. (2023). Toshkent.
4. Xorazm Ma'mun Akademiyasi axborotnomasi. (2023). Xiva.